



**TOSHKENT VILOYATINING  
CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**
*(2019 yil yanvar-aprel)*

Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar-aprel oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 4365,5 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,6 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 522,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 10,1%), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 3438,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 2,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 404,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 2,1 %) tashkil etdi.


**Shahar va tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi  
(mlrd. so'm)**


2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning deyarli barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Bekobod shahri, Chinoz tumani, Olmaliq va Ohangaron shaharlarida qayd etildi.

## Jami viloyat Chakana savdo aylanmasida shahar va tumanlarning ulushi, (%)



## Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,6 %ga o'sdi va 522,5 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 11,9 % ulushiga to'g'ri keladi.


Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 3438,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-aprei oylariga nisbatan 3,0 %ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 78,8 %ga teng kelmoqda.

### Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)

**2018 yil  
yanvar-aprel**




**2019 yil  
yanvar-aprel**



■ Yirik korxonalar  
■ Kichik tadbirkorlik

**Chakana savdo aylanmasida  
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)**




Tahliliy natijalarga ko`ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo`yicha Nurafshon shahri (89,3 %), Oqqo`rg`on tumani (94,4 %), Yangiyo`l shahri (89,2 %), Bostonliq tumani (87,6%), Parkent tumani (87,8 %), Yangiyo`l tumani (93,8 %) va Piskent tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 12,0 % ni tashkil etib, eng katta ulush Chinoz tumani (38,6 %), Bekobod shahri (26,9 %), Toshkent tumani (22,9 %), O`rtachirchiq tumani (19,5 %), Yuqorichirchiq tumani (17,8 %), Qibray tumani (10,2 %), Chirchiq shahri (16,0 %), Ohangaron shahri (19,8 %) tumanlarida kuzatilgan.

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalar  
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**


	Yirik korxonalar (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>522477,6</b>	<b>110,1</b>	<b>3438383,6</b>	<b>102,9</b>
Nurafshon sh.	409,9	134,6	88003,8	102,7
Olmalik sh.	67655,8	156,6	332327,4	99,7
Angren sh.	16805,0	119,4	184709,6	101,7
Bekobod sh.	67475,4	204,4	168335,6	89,8
Ohangaron sh.	17272,3	108,6	57301,8	103,5
Chirchiq sh.	39359,7	122,9	179431,7	104,3
Yangiyo`l sh.	9709,6	92,1	215133,3	101,5
<i>tumanlar:</i>				
Oqqo`rg`on	2968,1	83,1	168897,7	101,4
Ohangaron	3066,7	67,2	53981,1	105,6
Bekobod	8091,5	237,6	94011,7	101,4
Bo`stonliq	13021,3	75,0	177041,8	104,4
Bo`ka	6679,2	92,5	123807,1	101,7
Quyichirchiq	1582,1	108,1	63280,7	103,7
Zangiota	31723,9	96,9	419714,1	103,6
Yuqorichirchiq	30668,1	52,3	132387,2	126,8
Qibray	31213,1	70,0	233231,3	114,3
Parkent	9259,8	148,9	152860,1	101,9
Piskent	4816,8	107,2	81952,5	101,9
O`rtachirchiq	14571,3	93,2	54154,0	102,0
Chinoz	77954,3	125,7	110873,0	100,1
Yangiyo`l	10490,1	139,4	178145,4	100,5
<b>Toshkent</b>	<b>57683,6</b>	<b>103,2</b>	<b>168802,9</b>	<b>100,8</b>

**Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**


2019 yil yanvar-aprel oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo`yicha aholi jon boshiga 1503.9 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 2,2 %ga ko`paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-mart oylarida o`tgan yilga nisbatan viloyatning deyarli barcha hududlarida o`shish ko`rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko`rsatkilar Yangiyo`l shahri (4038.8 ming.so`m), Zangiota tumani (2625.4 ming. so`m) va Olmaliq shahri (3339.4 ming.so`m) hissasiga to`g`ri keladi.

**Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi**

	<b>Ming so`m</b>	<b>O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da</b>
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>1503,9</b>	<b>102,2</b>
Nurafshon sh.	2039,7	101,6
Olmalik sh.	3339,4	104,3
Angren sh.	1265,2	101,4
Bekobod sh.	2652,8	105,2
Ohangaron sh.	2354,1	102,8
Chirchiq sh.	1578,2	106,1
Yangiyo`l sh.	4038,8	100,3
<b>tumanlar:</b>		
Oqqo`rg`on	1729,2	99,7
Ohangaron	671,5	100,8
Bekobod	736,2	103,9
Bo`stonliq	1207,2	100,7
Bo`ka	1194,2	99,4
Quyichirchiq	723,9	101,9
Zangiota	2625,4	102,0
Yuqorichirchiq	1296,0	99,0
Qibray	1550,3	104,6
Parkent	1143,3	101,7
Piskent	987,2	100,7
O`rtachirchiq	509,2	98,5
Chinoz	1532,2	107,1
Yangiyo`l	960,1	100,5
Toshkent	1417,8	100,1



Jumladan, 2019 yilning yanvar-aprel oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 3,2 %ni tashkil etib, 139,5 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 9,5 % oshgan. Bunda jami savdo aylanmasining 76,3 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

### TOSHKENT VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI


(2019 yil yanvar-aprel)

Yil boshidan viloyat bo`yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 2043,5 mlrd. so`mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 1,4 %ga kamaydi.



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm yirik korxonalariga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-aprel oylari yakunlariga ko`ra, 1234,5 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 1,3 %ga kamaydi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 60,4 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkichni tuman va shaharlar bilan taqqoslaganda, O`rtachirchiq tumanida (124,8 %), Bekobod tumani{206,9%}, Yuqorichirchiq tumanida (129,2%) va Parkent (106,5%) tumanlarida yuqori bo'lgan.

**Yirik va kichik korxonalarining  
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida kichik tadbirkorlik sub`ektlari aylanmasining ulushi 39,6% ni tashkil etdi, kichik korxonalarining ulushi katta bo`lgan Ohangaron shahar (100,0%), Nurafshon shahri (99,7%) va Angren (99,8%) shahrida kuzatildi.

**Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo hajmi**

	Jami (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>2043,4</b>	<b>99,3</b>	<b>1234,5</b>	<b>97,2</b>	<b>809,0</b>	<b>102,8</b>
Nurafshon sh.	10,7	101,9		85,1	10,6	101,9
Olmaliq sh.	41,9	99,6	9,7	91,4	32,2	102,3
Angren sh.	10,6	102,4		18,0	10,6	103,2
Bekobod sh.	19,3	100,2	0,1	16,6	19,2	103,0
Ohangaron sh.	10,9	102,4			10,9	102,4
Chirchiq sh.	36,4	101,2	1,6	65,1	34,8	103,8
Yangiyo`l sh.	37,8	106,3	0,4	721,4	37,3	105,3
<i>tumanlar:</i>						
Oqqo`rg`on	1,5	98,7		10,8	1,5	101,5
Ohangaron	10,9	102,3	0,1	85,4	10,8	102,5
Bekobod	20,5	206,9	16,1	292,3	4,3	99,2
Bo`stonliq	23,3	89,6	0,1	4,3	23,1	101,9
Bo`ka	6,3	101,9		80,2	6,3	102,0
Quyichirchiq	7,3	101,4	0,1	72,4	7,3	101,7
Zangiota	212,5	101,9	0,6	35,4	211,9	102,5
Yuqorichirchiq	37,5	129,2	8,5	1337,5	29,0	102,2
Qibray	458,6	89,3	395,5	87,4	63,1	103,7
Parkent	25,3	106,5	0,7	1042,7	24,6	104,1
Piskent	7,9	100,6		22,5	7,9	101,8
O`rtachirchiq	653,8	124,8	643,6	125,3	10,2	101,9
Chinoz	169,4	58,5	149,9	55,4	19,5	101,7
Yangiyo`l	36,6	105,4	0,1	46,5	36,5	105,7
Toshkent	204,4	101,7	7,2	90,5	197,2	102,2

**Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining  
o`tgan yilga nisbatan o`zgarish sur`atlari, (%)**



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur'ati Chinoz (58,5 %) tumanida qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel.:71-230-86-59